XALQ DEPUTATLARI XIVA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

Xorazm viloyati, Xiva shahri, N.Kubro ko‘chasi, 27-uy,, +623 77 505 8, 220900

2026-yil 12-mart VII-17-11-12-217-K/26 Xiva shahar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq Xiva shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun tarif stavkalarini belgilash va budjet tushumlarini maqbullashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, shaharning sanitar holatini yaxshilash va avtoturargohlardan tushadigan mablag‘larning shaffofligini oshirish maqsadida, xalq deputatlari Xiva shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 14-fevraldagi DKQ 03-01/9-26-sonli qarorini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq Xiva shahar Obodonlashtirish bo‘limi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun tarif stavkalarini belgilash va budjet tushumlarini maqbullashtirish to‘g‘risida shahar xokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Raxmanovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin, olib borayotgan ishlari qoniqarli deb baholansin.

2. Xiva shahar obodonlashtirish bo‘limiga berkitilgan avtoturargohlardan foydalanganlik uchun to‘lov miqdorlari **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar markaziy ko‘chalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun chiqindilarni olib chiqib ketish va atrof-hududni obodonlashtirish

(ko‘kalamzorlashtirish) bo‘yicha xizmat ko‘rsatish tartibi va majburiy to‘lovlar tariflari **2-ilovaga** muvofiq belgilansin.

4. Xiva shahar xokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Raxmanov:

- bir oy muddatda markaziy ko‘chalardagi barcha tadbirkorlik sub’ektlari bilan xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tuzilishini ta’minlasin;
- avtoturargohlarda naqd pulsiz to‘lov tizimini (QR-kod, terminal) to‘liq joriy etsin.

5. Xiva shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (M.Atajanov) va shahar soliq inspeksiyasi boshlig‘i (N.Bobojonov) mazkur xizmatlardan tushadigan mablag‘larning maqsadli ravishda shahar infratuzilmasini yaxshilashga yo‘naltirilishini nazorat qilsin;

- har chorak yakuni bilan ushbu qaror doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot kiritib borsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Erniyazov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **RAXIMOV ADILBEK ERKINOVICH**

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2026-yil 12-martdagi
VII-17-11-12-217-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Xiva shahridagi Obodonlashtirish boshqarmasiga biriktirilgan avtoturargohlardan foydalanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	**Yengil avtomashinalar va ularning pritseplari uchun (so‘mda)**	**Yuk mashinalari, avtobus, traktor va pritseplari uchun (so‘mda)**	**Yuk mashinalari (20 tonna va undan ortiq) uchun (so‘mda)**
Bir soatgacha	4 000	6 400	11 200
Ikki soatgacha	6 000	9 600	16 800
Uch soat va undan ortiq (kuniga)	8 000	12 800	22 400

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2026-yil 12-martdagi
VII-17-11-12-217-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Xiva shahrida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqami**	**O‘lchov birligi**	**Tarif miqdori (so‘m)**
Yuridik shaxslar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	58 000
Budjet tashkilotlari uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	58 000
Budjet tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish	m^2	700